

O‘ZBEKISTONDA AUDIO ASARLARNI TIZIMLI RIVOJLANTIRISH

Asroriddin Saydazimov

*Alisher Navoiy nomidagi toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolamizda O‘zbekistonda audio asarlarni rivojlantirishning bir qancha vazifalari ko‘rsatib o‘tiladi. Audio asarlar, jumladan audiokitoblar, podkast va manbalarni o‘qishda ehtiyojmand shaxslar va boshqa mutaxassislar uchun qo‘llanilgan. Maqolada audio asarlarni yaratish va tarqatish uchun texnologik infratuzilmani yaxshilash, madaniy merosga oid materiallar shakllantirish, ta’lim jarayonida qo‘llash va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, audio asarlar sanoatini rivojlantirish uchun maxsus mutaxassislar tayyorlash va keng jamoatchilikka taqdim etishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda audio asarlarni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun zarur choralar va istiqbollarni belgilab beradi.*

Kalit so‘zlar: *audio asarlar, audiokitoblar, audio podkast va detallar, texnologik infratuzilma, madaniy meros, audio sanoat, audio mahsulotlar, ma’lumot texnologiyalari, audiomadaniyat, ovozli ta’lim.*

Kirish. O‘zbekistonda audio asarlarning rivojlanishi so‘nggi yillarda o‘zining muhimligini ko‘rsatmoqda. Bu soha keng jamoatchilik orasida milliy madaniyat, milliy ta’lim, milliy kontent axborot kabi boshqa sohalarida o‘z o‘rnini topmoqda. Audiokitoblar, podkastlar, ilmiy ma’lumotlar va boshqa audio mahsulotlar yangi kommunikatsiya shakllari sifatida jamiyatning turli qatlamlariga qulay va samarali axborot taqdim etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, badiiy asarlarning audio formati ishlab chiqarilishi va ularni tizimli ravishda ommalashtirish jamiyatdagi axborot oqimining muhim bir qismi bo‘lib qolmoqda.

Audio asarlar – bu yangi texnologiyalar orqali insonlarga bilim va madaniyatni o‘rganish imkoniyatini beradigan zamonaviy mahsulotlardir. Ular nafaqat ko‘rish imkoniyati cheklangan insonlar uchun, balki ta’limning turli xil sohalarida uchun ham imkoniyat eshiklarini ochadi. O‘zbekistonning madaniy merosi va ta’lim tizimini rivojlantirishda badiiy asarlarning audio formati nafaqat mazmunan boy, balki xalqning til va madaniyatini saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ammo, bu sohaning samarali rivojlanishida hali ko‘plab to‘siqlar borligi sezilarli darajada, mahsulotlarning yetarli emasligi, tizimli bosqichma-bosqich amaliyotda qo‘llanilmayotganligi ta’lim sohasida milliy mahsulotlarimiz ishlab chiqilmaganligi achinarli holdir. O‘zbekistonda audio asarlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, hayotga taqdim etish zarurati ko‘rinadi. Bu nafaqat ta’lim tizimi, balki xalqni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va uning madaniy boyliklarini saqlash nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Mazkur maqolada O‘zbekistonda audio asarlarni ishlab chiqish va texnologik jihatdan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun texnik jihatdan o‘rganib chiqish kerakligi aytiladi. Audio asarlarning jamiyatdagi roli, ta’limdagi o‘rni va texnologik jihatlari tahlil qilinadi.

Shu bilan birga, audio mahsulotlarning ishlab chiqarilishi, sifatini oshirish va targ‘ibotini kuchaytirish uchun qanday tizimli yondashuvlar kerakligi haqida fikrlar bildiriladi.

Asosiy qism

[O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-yanvardagi PF-5712-son Farmonida] ta‘lim jarayonini rivojlantirish va modernizatsiya qilishning dolzarb yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shulardan biri – adabiy ta‘limda innovatsion texnologiyalarni, jumladan, audiokitoblarni joriy etishdir. Farmonda ta‘kidlanganidek, ta‘lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar bilan mustahkamlash bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir. Bu jarayonni amalga oshirishda audiokitoblar, o‘zining keng imkoniyatlari bilan, katta ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida audio asarlar rivojlanishining tarixi. O‘lkamizda audio asarlarning tarixi ko‘zi o‘jiz toifadagi shaxslar uchun audio mahsulotlar tayyorlanishi bilan boshlangan. 1949-yildan boshlab “Bosmaxonalar tomonidan ovoz yozish studiyasi ishga tushirilib badiiy adabiyotlarni audiokitob shaklida, ko‘zi o‘jiz insonlarga yetkazish jarayonini boshladi”. Ilk audio asarlar “1971-yil respublika ko‘zi o‘jizlar jamiyati tomonidan yaratila boshlangan”. Ko‘rish imkoniyati cheklanganlar uchun audio mahsulotlar yetmaganligi sababli “1986-yil magnitofon kasetalari ishlab chiqarila boshlagan. 1993-yilgacha audiokitoblar faqat ko‘rish imkoniyati cheklanganlar uchun tayyorlanar edi, 2005-yildan boshlab esa, yozilgan audiokitoblar barcha uchun ishlab chiqarila boshlandi. Buni keyinchalik xususiy studiyalar ham qo‘llab-quvvatladi. Bugungi kunda yurtimizning turli hududlarida audio mahsulotlarga ixtisoslashgan studiyalar mavjud bo‘lib, ular asarlarni imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan hamda sog‘lom shaxslar uchun ham taqdim etmoqda.

Audio asarlarni yaratishda e‘tibor qaratiladigan jihatlar.

Audiokitoblarni yaratishda e‘tibor qaratilishi kerak bo‘lgan muhim jihatlar ko‘p. Birinchi navbatda, suxandonning o‘zi muhim ahamiyatga ega. Ovoz yozish jarayonida badiiy asardagi matnga qat‘iy amal qiladigan, talaffuzda noaniqliklar yo‘q bo‘lgan suxandonlarni tanlash zarur. Bu ayniqsa jahon adabiyotidagi turli xil asarlarni ovozlashtirishda ahamiyatga egadir, chunki intonatsiyasiz talaffuz tinglovchini chalg‘itishi mumkin. Ikkinchi muhim jihat – ovoz operatorining malakasi. Ovoz yozish jarayonida tashqi shovqinlar va noxush tovushlarning kirishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Bu, ayniqsa, audiokitobning professional sifatini ta‘minlash uchun muhimdir. Bundan tashqari, audiokitoblar uchun ortiqcha tovush elementlari yoki musiqa qo‘shish o‘rinli emas, chunki bu tinglovchining kitobni o‘z ongida tasavvur qilishiga halaqit berishi mumkin. Audiokitoblar aslida tinch, toza ovoz bilan taqdim etilishi kerak, bu esa kitob tinglanishining asosiy maqsadidir. Audiokitobni treklarga bo‘lish masalasi ham muhimdir. Har bir bob yoki bo‘lim alohida trekka bo‘linishi kerak, bu esa tinglovchiga kerakli joyga tezda o‘tish imkonini beradi. Ba‘zi studiyalarda 45 daqiqadan ortiq davom etadigan treklar yozilsa-da, bunday uzoq davomiylikdagi audiotreklar ko‘pincha tinglovchini charchatadi, mutaxassislarning fikriga qaraganda audiotrek davomiyligi 30-45 daqiqa oralig‘ida bo‘lishi kerak.

Audiokitoblarning ommalashuvi va ularning jamiyatdagi o'rni.

XIX-XX asrlar mobaynida imkoniyati cheklanganlar uchun audio asarlar yaratilgan bo'lsa-da, hozirga kelib audioasar mahsulotlari avvalgi yillardan farqli o'laroq tubdan o'zgardi. Audio asarlarni bugungi kunda turli tarmoqlar, veb saytlar va wikipedia sahifalarida topishingiz mumkin. Birinchisi, audioformatda yaratilgan maktab darsliklaridan bugungi kunda o'qituvchi va o'quvchilar qisman bo'lsa-da foydalanib kelmoqda. Ikkinchisi, audio mahsulotlarga zamon talabiga javob bergan holda metodik jihatdan yondashish va mutolaaning yangicha ifodasini kashf qilish kerak. Suxandon asarlarni mutolaa qilish mobaynida metodik jihatdan tinglovchini qiziqitirishida nafaqat suxandonlik, balki aktyorlik mahorati ham kerak bo'ladi. Audiokitoblarni yaratish mobaynida jamoatchilikni qiziqitira bilish va turli soha vakillariga foydali qilib ishlab chiqish kerakdir. Shu tarzda, audiokitoblar jamiyatda kitob o'qish madaniyatini oshiradi va yangi kitobxonlarni kashf qilishda o'z samarasini beradi. Audiokitoblarni ovoz yozish studiyalarida mobil texnika vositalarida ovoz yozish dasturi orqali va bir qancha laboratoriya vositalarida badiiy asarlarni audio ko'rinishida shakllantirish mumkin. Audioasarlarni tinglash mobaynida o'quvchini mustaqil fikrlashga va mutolaaga qiziqishini oshirish mumkin. Kitobni tinglar ekan o'quvchi yangi talant, iste'dodni o'zida kashf qiladi.

Badiiy asar orqali audio kitob tayyorlash bosqichlari

Badiiy asar asosida audio tayyorlash jarayoni turli bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, odatda, asarning mazmuni, uning har bir tafsiloti va ovoz yordamida ko'rsatilishi kerak bo'lgan tuyg'ularni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Quyida bu jarayonni bosqichlarga bo'linganini ko'rishimiz mumkin:

1. Asarni tahlil qilish va o'rganish

Badiiy asarni o'rganish: Audio tayyorlash jarayonining dastlabki bosqichi badiiy asarni diqqat bilan o'rganishdan iborat. Bu bosqichda asarning mazmuni, asosiy g'oyasi, muhim voqealar va xarakterlarning xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi.

Maqsadni aniqlash: Audio formatining qanday bo'lishi kerakligi, maqsadli auditoriya va muallifning xohishlariga qarab, audio kitob, drama, she'riy asar yoki boshqa audio shaklni tanlash zarur.

Tuzilish va taqsimot: Asarning qanday qismlarga bo'linishini va har bir qismni qanday tarzda tasvirlash kerakligini belgilash. Bu bosqichda asar bo'yicha reja tuziladi va har bir voqea yoki hodisa uchun mos ovoz effektlari, musiqalar va yoritish texnikalari belgilanadi.

2. Ssenariy tayyorlash

Skripti yozish: Asar matnini ovozli tasvirga moslashtirish. Ba'zan original matnni qisqartirish, uni o'zgartirish yoki voqealarni mantiqan yangi shaklda berish talab qilinishi mumkin. Ssenariyda har bir xarakterning so'zlash uslubi va ovozi aniqlash juda muhim.

Dialoglar va monologlarni yozish: Agar asar dialoglardan iborat bo'lsa, har bir personajning ovozi qanday bo'lishi, qanday emotsiyalarni ifodalash kerakligi aniqlanadi. Monologlar ham alohida o'ylab chiqiladi, chunki ular ko'pincha asosiy g'oyani yoki voqeani yoritishda katta ahamiyatga ega.

3. Ovoz beruvchilarni tanlash

Kasting: Ovoz beruvchilarni tanlash – audio asar tayyorlashning muhim bosqichlaridan biridir. Har bir personaj uchun ovozli aktyor tanlanadi, uning ovozi personajning xarakteriga mos kelishi kerak. Aktyorlar ovoz bilan turli hissiyotlarni, xatti-harakatlarni va niyatlarni ifodalashda malakali bo‘lishlari zarur.

Sinov o‘tkazish: Tanlangan aktyorlar bilan ovoz yozuvdan oldin sinov o‘tkaziladi. Bu bosqichda ular asarni o‘qib chiqadilar va personajlarni ovoz orqali qanday ifodalashlarini aniqlaydilar.

4. Ovoz yozuvini amalga oshirish

Studiya yozuv: Asar yozuvlari professional ovoz yozish studiyasida amalga oshiriladi. Bu yerda ovozli aktyorlar o‘z rollarini bajaradilar. Har bir personajning ovozi aniq va sifatli yozilishi kerak. Yozuv jarayonida ovoz texnikasi, tembr, intonatsiya va emotsional holatni mukammal ifodalashga e’tibor qaratiladi.

Tahrir va qayta yozish: Yozuv davomida ba’zi sahnalar yoki so‘zlar qisman yoki to‘liq qayta yozilishi mumkin. Ovozli aktyorlar matnni tahrir qilish, tonni o‘zgartirish yoki harakatni yanada aniqroq va ifodali qilish uchun qayta o‘qishlari mumkin.

5. Ovoz effektlari va fon musiqasi qo‘shish

Ovoz effektlari: Asarni yanada realistik va ta’sirchan qilish uchun ovoz effektlari qo‘shiladi. Masalan, tabiat tovushlari (yomg‘ir, shamol), harakat tovushlari (qadam, eshikning ochilishi) yoki maxsus effektlar (yassi ovoz, aks sado) kabi tovushlar asar muhitini va atmosfera tasvirini yaratishga yordam beradi.

Fon musiqasi: Asar davomida ruhiy holatni kuchaytirish uchun fon musiqasi qo‘shilishi mumkin. Musiqa tasvirlangan voqealarga mos ravishda tanlanadi: dramalarda dramatik musiqa, komediyalarda esa yengil va xushchaqchaq musiqa ishlatiladi.

6. Montaj va tahrir

Yozuvni tahrirlash: Yozilgan ovozlar, effektlar va musiqalar birlashtiriladi va tahrirlanadi. Bu bosqichda ovozlar bir-biriga mos kelishi, texnik xatolarni tuzatish va umumiy audio sifati yaxshilanishi kerak.

Kadrlar va sahnalarni sinxronlashtirish: Agar asar kinoya yoki teatr spektaklini ko‘rsatish uchun tayyorlansa, sahnalar va kadrlar mos ravishda sinxronlashtiriladi. Audio va vizual elementlar bir-biriga to‘g‘ri kelishi kerak.

7. Ovoz miksi

Miksaj: Miksaj jarayonida barcha elementlar (aktyorlar ovozi, musiqa, ovoz effektlari) birlashtiriladi. Bu bosqichda ovozlar balanslanadi, ya’ni ba’zi elementlar yuqori yoki past ovozda, ba’zi elementlar esa aniq eshivilishi uchun sozlanadi.

Dinamika va ekvalayzer: Ovoz balansi va dinamikasi optimallashtiriladi, ya’ni kuchli va yumshoq tovushlar orasidagi farq to‘g‘ri o‘rnatiladi, shuningdek, ovoz chastotalari (bass, o‘rta, yuqori) muvozanatlashadi.

8. Mastering (yakuniy tahrir)

Final mix tayyorlash: Asar yakuniy shaklda tayyorlanadi. Bu bosqichda audio faylning umumiy sifati tekshiriladi, kerakli o‘zgartirishlar amalga oshiriladi va oxirgi miksi tayyorlanadi. Mastering jarayonida ovoz sifatining barqarorligi ta’minlanadi.

Formatlash: Tayyor audio fayl turli formatlarda (MP3, WAV, FLAC va boshqalar) chiqariladi, shu jumladan, eshitish uchun mos bo‘lgan sifatda tayyorlanadi.

9. Chop etish va tarqatish

Audio mahsulotini tarqatish: Audio asar tayyor bo‘lgach, uni tarqatish uchun mos platformalarga (internet, audiokitoblar, radio va boshqalar) joylashtirish amalga oshiriladi.

Marketing va reklama: Ovozli asar auditoriyaga yetkazilishi uchun reklama va marketing strategiyalari ishlab chiqiladi.

Xulosa. O‘zbekistonning audio kitoblar sohasidagi rivojlanishi hozirgi kunda boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, bu yo‘nalishning kelajagi porloq. Audio kitoblarni tayyorlash jarayoni matnni tayyorlash, ovozli kitobni o‘qish, ovozni tahrirlash va uni turli platformalarda tarqatish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. So‘nggi yillarda, texnologiyalarning rivojlanishi va internetning keng tarqalishi bilan, audio kitoblar xalq orasida tobora ommalashib bormoqda. Yurtimizda ushbu soha tizimli yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa-da, bir qancha xususiy tashkilotlar ushbu loyihani rivojlantirish uchun harakat qilmoqda. Maxsus platformalar orqali kelajakda o‘zbek tilidagi audio asarlarning tarqalishida audiokitoblarning o‘rni beqiyosdir. Madaniyat, san‘at, adabiyot, axborot va ta’lim sohalarida katta o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-son Farmoni.

2. Nurmuhammadov J. 2023. “O‘quvchilarni adabiy laboratoriyalarda audiokitob tayyorlashga o‘rgatishning muammolari”.